


NAMANGAN VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2018 yil yanvar-noyabr)


Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 7066,6 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,5 foizga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 634,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 7,9 foiz), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 6432,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 4,1 foiz) hamda uyushmagan savdoda tovar aylanmasi 983,2 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,3 foizga kamaygan) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)




O'tgan yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Chust, Chortoq, Uchqo'rg'on va Kosonsoy tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari (foizda)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi (foizda)

2017 yil
yanvar-noyabr



2018 yil
yanvar-noyabr




■ Yirik korxonalar
■ Kichik tadbirkorlik

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

| | Yirik korxonalar (ming.so`m) | O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da | Kichik tadbirkorlik (ming.so`m) | O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da |
|--------------------------|---|---|--|---|
| Namangan viloyati | 634571,0 | 107,9 | 6 432 021,7 | 104,1 |
| Namangan.sh | 312321,6 | 95,2 | 2 452 000,8 | 104,3 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | |
| Mingbuloq | 597,4 | 135,3 | 158 748,7 | 101,5 |
| Kosonsoy | 1313,7 | 120,4 | 490 088,4 | 104,1 |
| Namangan | 501,9 | 4,4 | 287 918,4 | 105,6 |
| Norin | 17639,7 | 140,7 | 428 414,9 | 101,2 |
| Pop | 48932,5 | 92,0 | 351 185,5 | 104,0 |
| To`raqo`rg`on | 27773,2 | 71,3 | 473 737,2 | 104,6 |
| Uychi | 851,6 | 124,9 | 289 565,9 | 103,0 |
| Uchqo`rg`on | 25250,9 | 117,6 | 249 172,1 | 103,1 |
| Chortoq | 6695,1 | 796,7 | 298 102,3 | 103,9 |
| Chust | 186914,6 | 218,9 | 551 791,3 | 103,3 |
| Yangiqo`rg`on | 5778,9 | 17,2 | 401 296,4 | 109,0 |

Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (foizda)



2018 yilning o'tgan davri mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,2 foizni tashkil etib, 81,8 mlrd. so'mga yetdi yoki o'tgan yilning yanvar- noyabr oylariga nisbatan 5,7 foizga o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 94,9 foiz ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2018 yilning yanvar-noyabr oylarida o'tgan yilga nisbatan Viloyatimizning barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkilar Namangan shahri (4572,9 ming.so'm), Norin (2814,2 ming. so'm) va Chust (2877,7 ming.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Mingbuloq (1311,5 ming.so'm), Uychi (1417,4 ming.so'm) va Pop (1881,1) tumanlarida qayd etilgan.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 2599,3 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,6 foizga ko'paygan. Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

| | Ming so`m | O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da |
|--------------------------|---------------|--|
| Namangan viloyati | 2599,3 | 102,6 |
| Namangan.sh | 4572,9 | 101,4 |
| <i>tumanlar:</i> | | |
| Mingbuloq | 1311,5 | 99,8 |
| Kosonsoy | 2442,4 | 102,1 |
| Namangan | 1674,9 | 99,4 |
| Norin | 2814,2 | 100,6 |
| Pop | 1881,1 | 100,7 |
| To`raqo`rg`on | 2302,6 | 100,0 |
| Uychi | 1417,4 | 101,1 |
| Uchqo`rg`on | 1650,2 | 102,5 |
| Chortoq | 1585,8 | 104,0 |
| Chust | 2877,7 | 117,2 |
| Yangiqo`rg`on | 1936,6 | 99,6 |

2018 yilning o`tgan davri mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,2 foizni tashkil etib, 81,8 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 5,7 foizga o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 94,9 foiz ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

NAMANGAN VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2018 yil yanvar- noyabr)


Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1773,1 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2017 yilning shu davriga nisbatan 7,3 foizga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2018 yil yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra 1071,9 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,7% ga kamaydi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 60,5% ni tashkil qilmoqda.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

| | Jami (ming.so `m) | O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da | Yirik korxonalar (ming.so`m) | O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da | Kichik korxonalar (ming.so`m) | O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da |
|--------------------------|-------------------------|---|------------------------------------|---|-------------------------------------|---|
| Namangan viloyati | 1773272,5 | 107,3 | 701370,7 | 124,6 | 1071901,8 | 98,3 |
| Namangan.sh | 922448,9 | 106,1 | 399683,4 | 118,5 | 522765,6 | 98,3 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | | | |
| Mingbuloq | 7427,6 | 107,6 | 748,2 | 0,0 | 6679,4 | 96,7 |
| Kosonsoy | 16196,2 | 101,2 | 750,6 | 0,0 | 15445,6 | 96,5 |
| Namangan | 43662,6 | 91,4 | 1110,4 | 22,3 | 42552,2 | 99,4 |
| Norin | 3383,3 | 103,1 | 437,5 | 185,4 | 2945,8 | 96,7 |
| Pop | 21418,1 | 98,8 | 791,3 | 135,1 | 20626,8 | 97,8 |
| To'raqo'rg'on | 428996,4 | 112,2 | 231366,3 | 128,2 | 197630,1 | 97,9 |
| Uychi | 43893,0 | 100,5 | 507,2 | 0,0 | 43385,8 | 99,3 |
| Uchqo'rg'on | 23554,2 | 100,9 | 2500,6 | 114,2 | 21053,5 | 99,6 |
| Chortoq | 107933,8 | 98,3 | 0,0 | 0,0 | 107933,8 | 98,3 |
| Chust | 82213,8 | 151,3 | 63475,1 | 179,8 | 18738,7 | 98,4 |
| Yangiqo'rg'on | 72144,6 | 96,2 | 0,0 | 0,0 | 72144,6 | 98,8 |

**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining
o`tgan yilga nisbatan o`zgarish sur`atlari (foizda)**



Ulgurji tovar aylanmasi o`tgan yilning shu davriga nisbatan quyidagi hududlarning o`shish sur`atida kamayishi kuzatildi: Yangiqo'rg'on 3,8 %, Chortoq 1,7%, Namagan.t 8,6% va Pop 1,2 % ga tumanlarda kamaydi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 1,7 foizga kamaydi va 1071,9 mlrd. so`mga yetib, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 60,5 foizni tashkil qildi.